

Qaraqalpaq folklor oyunlarından biri bul "Qarajorǵa". Bul oyınnıń tariyxın oqıǵanımda ol qaraqalpaq xalqınıń milliy qaharmanlıq dástanların súwretlep, sawash maydanındaǵı jawıngerlik ruwxıyatın beriwshi háreketlerden ibarat oyın ekenligin túsınemiz. Milliy namalarımız kóbinese duwtar hám qobız arqalı atqarılatuǵın bolǵanlıqtan "Qarajorǵa" nıń ritmlik sáykesligide mine usı namalarǵa baylanıslı boladı. Er jigitlerimizdiń kúshli ayaq qol háreketleri, gózzal qızlarımızdıń názik iybelilik penen

atqarǵan oyınları bul kompoziciyaǵa ayrıqsha sulıwlıq baǵıshlap turadı.

Folklor oyınları túp negizinen izertlep, olardı hár tárepleme úyrenip shıǵıw xoreograf, baletmeysterlerdiń baslı maqsetleriniń biri. Óytkeni usı kúnge shekemgi barlıq úyreniwler, toplanǵan tájriybeler negizinde jas oyınshı qız-jigitler óz bilimlerin arttırıp kelmekte. Biz de óz gezeginde folklor oyınlarıdıń áhmiyeti jóninde bólistik. Xoreografiya janlarınıń úyreniliw tariyxı jıllar ótken sayın rawajlanıp keńeyip bara beredi.

Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. Yuldasheva Zuxra Salievna "Qaraqalpaq oyın óneri" oqıw qollanba. "FAN ZIYOSI" nashriyoti. Toshkent-2023. 7-bet.
2. Yuldasheva Zuxra Salievna "Oyın óneri" sabaqlıq. "Vorıs-nashriyot" nashriyoti. Toshkent- 2023. 10-bet.
3. Matyoqubova Gavhar "Lazgi" raqsi: tarixi va tadqiqi. Monografiya "FAN ZIYOSI" nashriyoti. Toshkent-2023. 4-bet
4. Roziya Karimova "O'zbek raqslari" oqıw qollanba. "Chulpon" nashriyoti Toshkent-2003. 7-bet.

REZYUME. Folklor raqslarining paydo bo'lish tarixi, milliy urf-odat an'analari va folklor raqslarining rang-barang turlari bo'yicha ma'lumotlar berilgan. Bunda o'sha davrga mos bo'lgan xarakterni ham berish kerakligi, chunki xarakter, obraz berilmasa raqs o'z maqsadiga yetmaganligi haqida tushuncha beriladi.

РЕЗИОМЕ. Приведены сведения об истории возникновения фольклорных танцев, национальных обычаях и традициях, а также о разнообразных видах фольклорных танцев. Это также подчеркивает необходимость придания характера, соответствующего эпохе, поскольку отсутствие характера и образа означает, что танец не достиг своей цели.

SUMMARY. Information is provided on the history of the emergence of folk dances, national customs and traditions, as well as various types of folk dances. This also emphasizes the need to give character appropriate to the era, as the absence of character and image means that the dance has not achieved its goal.

KINO AKTYORLIK SAN'ATI: MAHORAT VA RIVOJLANISH YO'LLARI

*Zamatdinov Adilbek Mirzaevich – katta o'qituvchi
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali*

Tayanch so'zlar: kino aktyorligi, aktyorlik texnikalari, metod aktyorlik, improvizatsiya, xarakter yaratish, hissiy ifoda, ovoz va diktsiya, kameraga moslashish.

Ключевые слова: киноактёрское искусство, актёрские техники, метод актёрской игры, импровизация, создание персонажа, эмоциональное выражение, голос и дикция, адаптация к камере.

Key words : film acting, acting techniques, method acting, improvisation, character development, emotional expression, voice and diction, camera adaptation.

Kino aktyorlik san'ati zamonaviy san'atning eng muhim va murakkab turlaridan biri hisoblanadi. Ushbu san'at turi aktyorlardan nafaqat tabiiy iste'dod, balki texnik mahorat, hissiy ifoda, ichki tajriba va chuqur tahlilni talab qiladi. Konstantin Sergeevich Stanislavskiy bu borada shunday yozadi: «Aktyorlik san'ati bu – shunchaki so'z yoki harakatlar majmuasi emas, balki inson ruhiyatining eng nozik qirralarini tomoshabiniga yetkazish san'atidir». [1.85] Kino

aktyorligi teatr aktyorligidan sezilarli farqlarga ega. Agar teatr sahnasida aktyorning ifodalari kattaroq va mujassamroq bo'lishi talab etilsa, kino san'atida esa tabiiylik va kameraga moslashish asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, Stanislavskiy yana shunday ta'kidlaydi: «Teatr aktyori tomoshabin uchun sahnada yashaydi, kino aktyori esa kamera orqali hayotni ko'rsatadi». [2.112] Demak, kino aktyori o'z mahoratini kameraga moslashish orqali namoyon

qilishi lozim. Kino aktyorligi nafaqat harakat va nutq orqali, balki mayda mimika va ichki hissiyotlarning kameraga tushirilgan holati orqali ham namoyon bo'ladi. Aktyor o'z obrazini yaratishda ijodiy yondashish bilan birga, texnik malakalarni ham egallashi lozim. Bu borada Mixail Aleksandrovich Chexov shunday deydi: «Aktyor kameraga emas, o'z qalbiga ishonsa, uning harbir ifodasi tomoshabinga haqiqiy hayotdek tuyuladi». [3.57] Bugungi kunda kino sanoatining jadal rivojlanishi sababli aktyorlardan yangi metod va texnikalarni egallash talab etilmoqda. Xususan, zamonaviy texnologiyalar, sun'iy intellekt va virtual haqiqat vositalari aktyorlik jarayoniga yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Shu sababli kino aktyorlari doimiy ravishda o'z ustida ishlashlari, tajribalarini oshirishlari va yangi aktyorlik uslublarini o'zlashtirishlari lozim. Jerald Meyster bu borada shunday ta'kidlaydi: «San'at hech qachon bir joyda to'xtab qolmaydi. Aktyor o'zini takomillashtirmasa, uning ijodi ham rivojlanmaydi». [4.25]

Kino aktyorining mahorati kino aktyorlarining eng muhim jihatlaridan biri – tabiiy va ifodali bo'lishidir. Teatr sahnasida harakat va ifoda kattaroq, mujassamroq bo'lishi talab etilsa, kino san'atida esa ichki his-tuyg'ular va mayda detallarga ko'proq e'tibor qaratiladi. Mashhur teatr rejissyori Konstantin Sergeyevich Stanislavskiy aktyorning xarakterga singib ketishi va o'zini real holatday his qilishi kerakligini ta'kidlab, shunday yozgan: «Aktyor o'z qahramonining hayoti bilan yashashi, uning kechinmalarini yuragi bilan his qilishi lozim. Aks holda, tomoshabin unga ishonmaydi». [5.136]

Kino aktyorligi teatrga qaraganda ko'proq mayda detallar va mikro ifodalarni talab qiladi. Teatr sahnasida tomoshabin uzoq masofada bo'lgani sababli aktyorning hissiyotlari yirik, yaqqol va tushunarli bo'lishi lozim. Biroq, kino san'atida kamera aktyorning eng nozik his-tuyg'ularini ham yaqin planda aks ettira oladi. Shu sababli, kino aktyori ichki kechinmalarini ortiqcha harakatlarsiz, nazorat qilingan mimikalar va ko'z ifodalari orqali yetkazishi muhimdir. Sanford Meisner bu borada shunday fikr bildiradi: «Kino san'atida aktyorning har bir harakati, hatto eng kichik yuz ifodasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Agar aktyor o'z his-tuyg'ularini nazorat qila olmasa, tomoshabin unga ishonmaydi». [6.74] Bundan tashqari, ovozni boshqarish va aniq diktsiya ham aktyorning nutqiy mahoratini oshirishga yordam beradi. Teatr aktyorlari sahna akustikasiga moslashgan holda, ovozlarni balandroq va kuchliroq chiqaradilar. Ammo kino

aktyorligi tabiatida kameraga yaqin bo'lish va mikrofon yordamida ovozni tabiiy yetkazish muhim hisoblanadi. Shuning uchun, aktyor ovoz balandligini nazorat qilish, ohangni his qilish va tabiiy nutq uslubini saqlashni o'rganishi lozim. Aktyorlik mahorati bo'yicha taniqli mutaxassis Rudolf Arnheim bu borada quyidagicha izoh beradi: «Kino aktyorining ovozi nafaqat aniq va ravon bo'lishi, balki hissiyotlarni tabiiy yetkazishi kerak. Mikrofon ortiqcha shovqinlarni ham ushlaydi, shuning uchun aktyorning har bir so'zi, har bir ohangi chuqur nazorat qilinishi lozim» [7.183] shuningdek, kino aktyorlari o'z tanasini nazorat qilish va kameraga moslashish texnikasini o'rganishlari kerak. Piter Barkli o'zining aktyorlik mahorati bo'yicha risolasida shunday deydi: «Har bir harakat maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Tasvirga olish maydonchasida ortiqcha harakatlar aktyorning obrazini buzishi mumkin» [8.91] deb izoh beradi.

Kino Aktyorligi Texnikalari bo'yicha to'xtalib o'tadigan bo'lsak aktyorning xarakterni chuqur his etishida har xil texnikalardan foydalaniladi. Ushbu texnikalar orasida eng mashhurlari – «Method Acting», Meisner uslubi va Stanislavskiy tizimi bo'lib, ular aktyorlik san'atining turli jihatlariga urg'u beradi.

«Method Acting" yoki «Uslubiy aktyorlik» texnikasi aktyorning o'z xarakteriga butunlay singib ketishini talab qiladigan yondashuvdir. Bu uslub XX asr o'rtalarida amerikalik aktyorlik pedagogi Li Strasberg tomonidan ommalashtirilgan bo'lib, u Stanislavskiyning tizimidan ilhomlangan. Strasberg shunday ta'kidlaydi: «Aktyor sahnada emas, haqiqiy hayotda yashayotgandek his qilishi kerak. Har bir harakat, har bir so'z uning qahramoniga aylanib ketishiga xizmat qilishi lozim». [9.48] «Method Acting» usulida aktyor qahramonining kechinmalarini ichki hissiyotlar orqali o'zida uyg'otishga harakat qiladi. U o'zining shaxsiy xotiralaridan foydalanib, kerakli his-tuyg'ularni uyg'otadi va ularni qahramon obrazida ifodalaydi. Masalan, Marlon Brando va Robert De Niro kabi aktyorlar ushbu texnikadan foydalangan holda kino san'atining afsonalariga aylangan.

Sanford Meisner tomonidan ishlab chiqilgan ushbu texnika esa tabiiy reaksiyalar va jonli muloqotga urg'u beradi. U shunday yozadi: «Aktyor o'z rolini bajarishda sun'iylikdan qochishi kerak. Har bir jumla, har bir harakat tabiiy bo'lishi va sherigi bilan haqiqiy muloqot asosida shakllanishi lozim». [10.96] Meisner uslubida mashqlar jonli muloqot orqali o'tkaziladi. Aktyorlar oldindan tayyorlangan rejaga emas, balki vaziyatga qarab real reaksiyalar

bilan javob berishadi. Bu texnika improvizatsiyani kuchaytirib, aktyorlarga jonli va ishonarli o'yin namoyish etish imkonini beradi.

Kino aktyorligi texnikalarining eng fundamental usullaridan biri Stanislavskiy tizimi hisoblanadi. Ushbu tizim aktyorning ichki hissiyotlari va ruhiy holatini chuqur o'rganishga asoslangan bo'lib, aktyorning xarakterini haqiqatga yaqin qilishni maqsad qiladi. U: «Agar aktyor o'z qahramonining ruhiy dunyosiga kirib bormasa, u hech qachon haqiqiy ijroni namoyish eta olmaydi. Tomoshabin aktyorga emas, uning qahramoniga ishonishi lozim» [11.157] Stanislavskiy tizimi quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

1. «Haqiqiy his-tuyg'ular yaratish» – Aktyor o'z tajribasi va xotiralaridan foydalanib, qahramonning hissiyotlarini uyg'otadi.
2. «Ichki hayot» – Aktyor o'z qahramonining fikrlash tarzini va motivatsiyasini tushunishi kerak.
3. «Tashqi ifodalar» – Ichki kechinmalar harakat va mimikalar orqali tabiiy ifodalanishi lozim.
4. «Obrazga singish» – Aktyor qahramonining hayotini to'liq his qilishi va uning ichki olamiga kirib borishi zarur. Stanislavskiy tizimi teatr va kinoda keng qo'llanilib, Al Pachino, Dustin Hoffman va Meril Strip kabi aktyorlarning ijodida katta rol o'ynagan.

Marlon Brando va «Method Acting» Uslubi bo'yicha Marlon Brando – aktyorlik san'atida inqilob qilgan ijodkorlardan biri bo'lib, u «Method Acting» uslubini mukammal o'zlashtirgan aktyor sifatida tanilgan. Brando aktyorlik faoliyatining ilk bosqichlaridayoq Lee Strasberg va Stella Adler kabi taniqli pedagoglarning ta'sirida bo'lgan va ularning uslublarini o'z ijrosida muvaffaqiyatli qo'llagan.

Meryl Streep – har bir rolga mukammal tayyorlanish uslubi Meryl Streep zamonaviy kino san'atining eng iste'dodli va professionallik bilan ajralib turadigan aktyorlaridan biridir. U har bir rolga chuqur tayyorgarlik ko'rishi, xarakterining ruhiy va jismoniy tomonlarini batafsil o'rganishi bilan mashhur. Streep ko'plab filmlarida turli xil aksent va dialektlardan foydalangan bo'lib, har bir rolida o'z qahramonining tilini, ovozi va harakat

uslubini mukammal egallaydi. «Meryl Streep har bir qahramoni bilan shaxsiy aloqani his qiladi. U rolga tayyorgarlik jarayonida nafaqat matn bilan ishlaydi, balki qahramonining ichki dunyosini ham sinchkovlik bilan o'rganadi» [13.189] Meryl Streepning «Sophie's Choice» (1982) filmidagi roli uning aktyorlik mahoratini va tayyorgarlik uslubining naqadar chuqur ekanligini ko'rsatadi.

Phoenixning eng mashhur rollaridan biri bu «Joker» (2019) filmidagi ijrosi bo'lib, u mazkur rol uchun bir necha oy davomida psixologik tayyorgarlikdan o'tgan, hatto tana vaznini sezilarli darajada kamaytirgan. Uning Joker rolini ijro etishi haqida kino tanqidchisi Andrew Butler shunday yozadi: «Joaquin Phoenix o'z qahramonining ruhiy iztiroblarini shunchalik realistik tasvirlaganki, uning Jokeri kino tarixidagi eng esda qolarli xarakterlardan biriga aylandi» [14.256] Phoenix shuningdek, «The Master» (2012) filmida ham ajoyib ijro namoyish etib, o'z qahramonining ruhiy holatini chuqur ochib bergan.

Daniel Day-Lewis – rolga butunlay singib ketish Daniel Day-Lewis o'zining roldagi mukammallikka intilishi va qahramoniga to'liq singib ketishi bilan mashhur. U «Method Acting» texnikasini yanada chuqurroq qo'llagan aktyor bo'lib, har bir roli uchun uzoq vaqt davomida tayyorgarlik ko'radi va butun hayot tarzini o'zgartiradi. Masalan, «Lincoln» (2012) filmida AQShning 16-prezidenti Avraam Linkoln rolini ijro etish jarayonida u film suratga olinayotgan butun vaqt davomida Linkoln aksentida gapirishni davom ettirgan va shaxsiy hayotida ham tarixiy qahramon obrazida yashagan.

Stanislavskiy, Meisner, Strasberg kabi yirik ustozlar tomonidan yaratilgan aktyorlik metodlari bugungi kunda ham dolzarb bo'lib, ularni chuqur o'rganish aktyor ijrosining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, «Method Acting» kabi texnikalar aktyorlarga obrazga to'liq singib ketish va tomoshabinni qahramon bilan bog'lash imkonini beradi. Shu bilan birga, realistik ijro uslublari bilan bir qatorda, improvizatsiya qobiliyati ham bugungi kino industriyasida katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Stanislavskiy K.S. Aktyorlik mahorati asoslari, Moskva: Iskustvo nashriyoti, 2010.y.
2. Stanislavskiy K.S. Teatr va hayot, Moskva: Vserossiya teatr jamiyati nashriyoti, 2010.
3. Chexov M.A. Aktyor va uning ichki texnikasi, Sankt-Peterburg: Petroart nashriyoti, 2015, 57-bet.
4. (Meyster J. Zamonaviy aktyorlik mahorati, London: Oxford University Press, 20035-bet).
5. Stanislavskiy K.S. Aktyorlik mahorati asoslari, Moskva: Iskustvo nashriyoti, 2010, 136-bet.
6. Meisner S. On Acting, New York: Vintage Books, 1987, 74-bet.

7. Arnheim R. Film as Art, Berkeley: University of California Press, 2006, 183-bet.
8. Barkli P. Acting for the Camera, London: Methuen Drama, 2012, 91-bet.
9. Strasberg L. A Dream of Passion: The Development of the Method, New York: Plume, 1987, 48-bet.
10. Meisner S. On Acting, New York: Vintage Books, 1987, 96-bet.
11. Stanislavskiy K.S. Aktyorlik mahorati asoslari, Moskva: Iskustvo nashriyoti, 2010, 157-bet.
12. Strasberg L. A Dream of Passion: The Development of the Method, New York: Plume, 1987, 102-bet.
13. Thompson A. The Art of Acting: A Modern Approach, London: Routledge, 2017, 189-bet.
14. Butler A. The Psychology of Acting, Cambridge: Cambridge University Press, 2020, 256-bet.

REZYUME. Ushbu maqolada kino aktyorligi san'ati, uning asosiy texnikalari va rivojlanish yo'llari ilmiy nuqtai nazardan tahlil etilgan. Stanislavskiy, Meisner va Strasberg metodlari asosida aktyorlik mahoratini oshirish yo'llari yoritilgan. Shuningdek, dunyo miqyosidagi mashhur aktyorlarning uslublari ham ko'rib chiqilgan. Zamonaviy texnologiyalar va yangi metodlar kino aktyorligi san'atini rivojlantirishga qanday ta'sir ko'rsatayotgani haqida ham fikr yuritilgan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье рассматривается искусство киноактёрской игры, основные техники и пути его развития с научной точки зрения. Освещены методы Станиславского, Мейснера и Страсберга, а также их влияние на мастерство актёров. Кроме того, анализируются стили известных актёров мирового уровня. Также обсуждается влияние современных технологий и новых методик на развитие киноактёрского искусства.

SUMMARY. This article analyzes the art of film acting, its main techniques, and development paths from a scientific perspective. It explores the methods of Stanislavski, Meisner, and Strasberg, focusing on their impact on acting skills. Additionally, the article examines the styles of world-renowned actors. The influence of modern technologies and new methodologies on the development of film acting is also discussed.

ДУЎТАР ХАЛҚИМЫЗДЫҢ КӨРКЕМ-ЭСТЕТИКАЛЫҚ ТАЛҒАМЫН ҚӘЛИПЛЕСТИРИҮДЕГИ ОРНЫ

А.Шыныбеков – оқытығышы

Өзбекстан мәмлекетлик көркем өнер хәм мәденият институты Нөкис филиалы

Таянч сўзлар: мусиқа, чолғу асбоби, дутар, санъат, маҳорат.

Ключевые слова: музыка, музыкальный инструмент, дутар, искусство, мастерство.

Key words: music, musical instrument, dutor, art, craft.

Миллий фольклорымызда сөз хәм саз өнери ҳаққындағы рәуйятларында саз өнери инсан пайда болмастан, яғный адам атадан бурын-ақ пайда болып, инсанға жан бергенин айтып, саздың тәбиятындағы салыстырып болмас күдиретин тәрийплеп «Саз бенен сәўбетти ялган демеңлер, Адам ата бинят болганда барды» деп ўәсият етип кеткенинде мәзи айтылған әнгиме емес.

Қарақалпақ халық саз әсбабы ала мойнақ дуўтарды хәр қыйлы басқышларда шертип үйретиў хәм хәр қыйлы етип атқарыў, оларды белгили болған усылларда шертиўден ибарат болып есапланады.

Жас әўладты миллий ғәрезсизлик идеялары руўхында тәрбиялаў, қәдириятларымызды хәм миллий музыканы терең үйрениў, сондай-ақ, халқымыздың өзлигин аңлаў, өз үрп-әдетлерин сақлай билиўи, оларды тиклеп, қәстерлеп, жаңа өсип киятырған жас әўладқа жеткерийў бүгинги

күннің әҳмийетли мәселелеринен бири болып есапланады. Жас әўладты миллий әдеп-икрамлылық қәдириятлар руўхында тәрбиялаўдың әҳмийетли қуралларынан бири сыпатында оларды хәр тәрәплеме эстетикалық көркем талғам ийеси болып жетилисиўинде миллий музыка мийрасының саз әсбаплары арқалы таныстырып барыў айрықша әҳмийетке ийе.

Дуўтар тек Орта Азия халықлары, атап айтқанда, тәжик, уйғыр, өзбек, қарақалпақ, түркмен халықларында да кең тарқалған. Бул әсбапта миллий намалар менен бир қатарда, барлық сырт ел композиторлары тәрәпинен жазылған хәр тәрәплеме қурамалы шығармаларды да шеберлик пенен атқарыў мүмкин.

Дуўтарда шығармаларды өз бетинше үйрениў хәм оларды саналы түрде өзлестириў, атқарыўшы ушын сазенде танлаған кәсибин